

INGLIZ TILI TEZ FURSATDA O'RGANISH METODIKALARI

Ismoilova Mehribon

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

Gmail: ismoilovamehribon53@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Nilufar Zubaydova**

Annotatsiya: Ushbu maqolada qanday qilib zamonaviy metodlardan foydalangan holda ingliz tilini tez fursatda o'rganib samarali natijaga erishish haqida muhokama qilinadi. Bu maqolani o'qir ekansiz siz tez fursatda samarali usullar yordamida chet tillarni o'rganishingiz zamonaviy metodlari bilan tanishishingiz mumkin. Bu metodlar nafaqat samarali balki, vaqt tejovchi hamdir.

Kalit so'zlar: tilni mustaqil muntazam tarzda o'rganish, qiziqish, faollik, rosetta stone, fluent, hello english, duolingo, hello talk, roboteact zamonaviy va interaktiv metodlar.

KIRISH

Bugungi rivojlanayotgan davrda har bir sohada xususan, ilm-fan sohasida o'zgarishlar va sezilarli darajada yutuqlarga erishilmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng ilm-fanga ayniqsa, chet tillarini o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Har bir fanni zamonaviy innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalanib o'rgatish bugungi davrning eng muhim talablaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning chet tillarni o'qitish va o'rganishga doir bir qator qarorlar qabul qilganlaridan so'ng yurtimizda yangicha muhit va davr boshlandi. Qarorga muvofiq zamonaviy darsliklar, metodlar va texnologiyalar ishlab chiqarildi. Hozirgi zamonaviy ta'limda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalaridan o'quv jarayonini tashlik etishga bo'lgan talab kundan kunga o'sib boryapti. Buning asosiy sabablaridan biri, shu vaqtgacha bo'lgan ana'naviy ta'limdan farqli ravishda zamonaviy metodlardan foydalanganda o'quvchi shaxsining rivojlanishi, shakllanishi, yetarli bilim olishi va tarbiyalanishiga zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratilyapti.

Zamonaviy metodlar va innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Chet tillarini xususan, ingliz tilini o'rgatishning bir nechta samarali usullari mavjud. Jumladan, dars jarayonida ingliz tilidagi video roliklar, dialoglar, kino yoki multfilmlarni ko'rsatish, ancha ana'naviy usul hisoblangan magnitofon

va CD lardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tili o'rganish jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Chet tilini o'rgatishda zamonaviy metodlarning ahamiyati beqiyos. Shu o'rinda hozirgi davrda keng qo'llanilayotgan bir nechta metodlardan foydalanib kelinmoqda.

Chet tilini o'rganishning maqsadi tilni o'rganish, uning adabiyotini o'qish yoki aqliy intizomdan foyda olishdir u tilga grammatik qoidalarni batafsil tahlil qilib, jummalarni ona tiliga tarjima qilish orqali yondashadi nutq va yozishga kam e'tibor beriladi, o'qish va yozishga asosiy e'tibor beriladi.

Grammatik tarjima usulining xususiyatlari:

1. O'zbek sinflarida Ingliz tili darsida O'zbek tilidan ko'proq foydalanish kerak
2. Ro'yxatda o'qitiladigan va ajratilgan lug'at
3. Grammatikani tushuntirish, yodlash
4. Klassik matnni erta o'qish
5. Matnning grammatik tahlili

O'rganish nazariyasi: Deduktiv ta'lim juda muhim. Birinchidan, o'qituvchi qoidalarni aniq aytadi, keyin qoidalar misollar va mashqlar bilan mustahkamlanadi.

Til nazariyasi: Til adabiyotni tushunish uchundir. Tarjima - bu tilni o'rganish usuli. Og'zaki muloqot birinchi navbatda muhim emas. Yozma til og'zaki tildan ustundir. Talabalar o'z ona tilining tuzilishini ham o'rganadilar. Chet tilini o'rganuvchilar ko'proq madaniy va intellektual bo'ladi.

Grammatika - tarjima yondashuvi bu usulda darslar talabaning ona tilida olib boriladi, maqsadli tildan kam faol foydalaniladi lug'at alohida so'zlar ro'yxati shaklida o'rgatiladi. Grammatikaga har doim batafsil tushuntirishlar beriladi. Grammatika bo'yicha ko'rsatmalar so'zlarni birlashtirish qoidalarini taqdim etdi; ko'rsatma so'zlarning shakli va fleksiyasiga qaratilgan. Matnlarning mazmuniga kam e'tibor beriladi.

Mashqlar - ajratilgan gaplarni o'rganilgan tildan ona tiliga va aksincha tarjima qilish mashqlari. Talaffuzga kam yoki umuman e'tibor berilmaydi.

Audio-lingual usuli

Audio-lingual usul - bu dastlab nutq mahoratiga qaratilgan yana bir o'qitish usuli. O'quv jarayonini qayta ko'rib chiqish va qayta qurish zarurati tarixiy jihatdan tushuntirilishi mumkin. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi amerikaliklar uchun ham dushmanlari, ham do'stlarining tillarini o'rganishni har qachongidan ham muhimroq qilib qo'ydi. Natijada, 1950-yillarda Audiolingual Metod nomi bilan mashhur bo'lgan "Armiya usuli" yangi yondashuvni yaratish va mustahkamlash

uchun to'g'ridan-to'g'ri usulning qismlari olindi. Ko'pchilik til o'rganayotganda qo'shimcha ravishda har xil mobil ilovalardan ham foydalanadi.

Biz sizga 6 ta eng yaxshi ingliz tilini o'rganishda yordam beradigan ilovalarni tavsiya qilmoqchiman.

1. Rosetta stone — keng imkoniyatli dastur. Lug'at va grammatika darslarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, talaffuz bilan ishlash imkoniyatini beruvchi darslar ham bor. Offlayn foydalanish uchun audio darslarni yuklab olish kifoya.
2. Fluentu — mediaga asoslangan eng yaxshi dastur. Ingliz tilidagi videolar — yangiliklar, musiqiy va reklamali videolarni o'z ichiga oladi. Interaktiv taglavhalar yordamida istalgan so'zning ustiga bosib, u haqida qo'shimcha ma'lumot olish mumkin.
3. Hello English — O'rta darajadagi o'rganuvchilar uchun eng yaxshi ilova. Dastlab test topshirish orqali darajangiz aniqlanadi. Darslar davomida o'yin o'ynashingiz, video tomosha qilishingiz, audiokitoblarni tinglashingiz mumkin.
4. Duolingo — eng qiziqarli dastur. Ingliz tilini o'ynab o'rganish imkonini beradi. Keyingi bosqichga o'tish, yangilanishlarni sotib olish uchun ochkolar yig'ish sizni o'ziga qiziqtirib qo'yadi.
5. Hello Talk — suhbatlashish uchun eng yaxshi ilova. Dunyo bo'ylab ingliz tilida gaplashuvchilar bilan matn, ovoz yozish ovozli qo'ng'iroqlar, video qo'ng'iroqlar orqali suhbatlashish imkonini beradi.
6. Roboteach — masofaviy ta'lim beruvchi mobil ilova hisoblanadi. Bu platformada darslar video, audio, rasmi va matnli materiallar orqali o'rgatiladi. Shuningdek, darslarning o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlash maqsadida, darslarning uyga vazifalari va shuningdek har bir darsga oid testlar doimiy tarzda berib boriladi.

Xulosa. Ushbu maqolada ingliz tilini tez fursatda va samarali o'rganishga qaratilgan zamonaviy metodlar va texnologiyalarning o'rnini muhokama qilingan. Bugungi kun talablari chet tillarini o'qitishda interaktiv va innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini oshirmoqda. Maqola muallifi, mustaqil o'rganish, qiziqish, va faoliyatga asoslangan, zamonaviy ilovalar kabi usullarni tavsiya qiladi. Rosetta Stone, FluentU, Hello English, Duolingo, Hello Talk, va Roboteach kabi dasturlar chet tilini mustaqil ravishda samarali o'rganish imkoniyatlarini beradi. Mazkur metodlarning qimmatli tomoni shundaki, ular nafaqat til bilimni rivojlantiradi, balki vaqtni tejaydi va jarayonni qiziqarli qiladi. Ingliz tilini o'rganishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ko'plab o'quvchilar muvaffaqiyatga erishishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. – “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Sharq, 1998. – 64 bet.
2. Smith J. – “Language Learning Strategies”. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013. – 148 bet.
3. M Orzikulova, G Rustamova “Methods Of Improving Speaking Skills For Kids” Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 151-154, 2024
4. H S Gafforov, N N Zubaydova Gender and its effect on language acquisition Academic research in educational sciences 2 (5), 217-220, 2021
5. A Ziyodullayeva, S Saidabrorova, H Akhmedova “Maktabgacha Va Boshlang’ich Ta’limda Ingliz Tilini Rivojlantirish”. Бюллетень студентов нового Узбекистана 1 (5 Part 2), 172-175, 2023
6. Richards J.C. – “Approaches and Methods in Language Teaching”. – New York: Oxford University Press, 2001. – 288 bet.
7. Brown H.D. – “Principles of Language Learning and Teaching”. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 2007. – 320 bet.
8. Thornbury S. – “How to Teach Speaking”. – London: Longman, 2005. – 100 bet.
9. Jumayeva, M. (2022). Analysis Of The Views Of Scientists Of The Renaissance, Based On A Unique Approach To Pedagogy And Education And Upbringing. Science and Innovation, 1(5), 26-29.
10. Bekzodovna, J. M., & Akbarovna, D. G. (2023). Innovative Methods and Tools in Higher Education. Science and Innovation, 2(11), 708-715.
11. Valieva, N. (2022). Marie-Laure Derat, L’énigme d’une dynastie sainte et usurpatrice dans le royaume chrétien d’Éthiopie du XIe au XIIIe siècle. Aethiopica, 25, 258-261.
12. Валиева, Н. (2021). «Житие Лалибэлы»: новые перспективы исследования. Библия и христианская древность, 3(11), 197-214.
13. Valieva, N. (2021). Prof. Geta (t) chew Haile:(approx. 04/19/1931–June 10, 2021). Scrinium, 17(1), 16-19.
14. Valieva, N., & Liuzzo, P. M. (2021). Giving Depth to TEI-Based Descriptions of Manuscripts: The Golden Gospel of Ham. Aethiopica, 24, 175-211.
15. Valieva, N. (2020). The Manuscript Book in the Traditional Culture of Ethiopia, written by Platonov Vyačeslav Michajlovič, 2017. Scrinium, 16(1), 410-412.

16. Valieva, N. (2020). Getatchew Haile, The Ethiopian Orthodox Church's Tradition on the Holy Cross. *Aethiopica*, 23, 281-285.
17. Valieva, N. (2019). Nafisa Valieva, The 'Gadla Lālibalā collection of textual units': tradition and documentation. *Aethiopica*, 22, 315-318.
18. Валиева, Н. Ф. Библия И Христианская Древность. Библия И Христианская Древность Учредители: Кожухов Сергей, (3), 197-214.
19. Валиева, Н. А. (2022). Вақф Тушунчаси Ва Тарихдаги Вақф Ташкилотлари Ҳақида. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(2), 107-114.
20. Худайназаров, Ф. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Ривожлантиришининг Назарий Асослари. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 25(2), 335-340.
21. Xudoynazarov, F. (2023). Islom Moliyasi–Muammolar Va Yechimlar. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(8), 109-114.
22. Худойназаров, Ф. (2023). Ислом Иқтисодиёти: Ибн Халдун Тавсиялари. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(6), 351-356.
23. Худойназаров, Ф. (2023). Тўқима Ҳадислардан Ҳадисларни Сақлаб Қолишда Муҳаддислар Фаолияти. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 763-776.
24. Khudaynazarov, F. (2020). Political and Dynastic Relations Of Kievan Rus. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 2(08), 55-64.
25. Shokhista, R. (2023). The Significance Of Emphasizing Communicative Competence As The Foundation For Teaching Listening And Speaking Skills Rustamova Shokhista Sharifovna. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 25-28.
26. Rustamova, S. S. (2023, January). The Importance Of Speaking Activities In Teaching English. In *International Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 357-361)*.
27. Sharifovna, R. S. (2022). Teaching Spoken English To Upper Class Pupils. *Confrencea*, 6(6), 87-89.
28. Sharifovna, R. S. (2022). Class Size And The Learning-Teaching Process In Upper Classes. *Journal of new century innovations*, 14(1), 86-98.
29. Sharipovna, R. S. Peculiarities Of Teaching English In Secondary Schools In Uzbekistan. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, (2), 1-5.
30. Suleymanova, N. M., & Idiyev, A. R. O. G. L. (2021). Gapning Nominativ Aspekti Va Uning Kommunikativ Jarayoni Haqida. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 805-809.